

**YURTIMIZ ADIBLARI HAYOTI VA IJODINI O'RGANISHDA UY
MUZEYLARINING O'RNI VA AHAMIYATI. HAMID OLIMJON VA ZULFIYA UY
MUZEYI MISOLIDA**

Irgasheva Sojida G'olib qizi

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
San'atshunoslik va muzeyshunoslik fakulteti 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Bugungi kunda yosh avlodga o'z ajdodlarining hayot yo'li va ijodi haqida bilim va ko'nikmalar yetkazishda uy muzeylarining ahamiyati yuqori. Ushbu maqolada Jizzax viloyatida qad rostlagan Hamid Olimjon va Zulfiya uy muzeyi faoliyati yoritilgan va yuqoridagi fikrimizning yorqin misoli sifatida ko'rsatilgan.*

Аннотация: *Сегодня дома-музеи играют важную роль в передаче молодому поколению знаний и умений о жизненном пути и творчестве их предков. В этой статье рассказывается о деятельности Дома-музея Хамида Олимджона и Зульфийи, который был возведен в Джизакской области, и показан в качестве яркого примера нашего мнения, приведенного выше.*

Annotation: *Today, house museums have a high importance in communicating knowledge and skills to the younger generation about the life path and creativity of their ancestors. This article covers the activities of the House Museum of Hamid Olimjon and Zulfiya, which was erected in the Jizzakh region, and is shown as a vivid example of our opinion above.*

Mustaqillik yillarida xalqimizning o'tmishini o'rganish, uning insoniyat tarixidagi rolini haqqoniy yoritish, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarda voqeliklarni obyektiv baholash imkoni tug'ildi. Bu esa zamon talablariga mos g'oyaviy, ilmiy va badiiy jihatdan javob beruvchi yangi ekspozitsiyani yaratish zarurligini anglatdi.

Barchamizga ma'lumki, muzeylarda saqlanayotgan noyob eksponatlar orqali fuqarolarda, ayniqsa, yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, bebaho tarixiy va madaniy merosga hurmat, g'urur va iftixor, Vatanga sadoqat va muhabbat tuyg'ularini tarbiyalash va kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Vatanimiz tarixi, xalqimizning ozodlik uchun kurash yo'li haqida aholining bilimini oshirishda muzeylarning o'rni muhim. Muzeylar tariximizni o'rganishga, kechagi va bugungi hayotini taqqoslab, jamiyatimiz taraqqiyoti haqida to'g'ri xulosa chiqarishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, yurtimiz yoshlarini milliy g'oya, milliy g'urur, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda keng foydalanish, O'zbekistonga tashrif buyurayotgan xorijiy sayyohlarga mazkur ekspozitsiya orqali o'zbek adabiyoti namoyondasi haqida ma'lumotlar berib boorish va ularning bu sohadagi fikr-mulohazalari o'zgarishiga ta'sir etish kabi juda ham muhim ahamiyatli vazifani bajaradi.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 27-aprelda Jizzax viloyatiga tashrifi davomida ulkan shoirlar Hamid Olimjon va Zulfiyaning adabiy merosini keng targ'ib qilish, asarlaridagi ezgu tushunchalar mohiyatini yoshlarga yetkazish lozimligini ta'kidlagan edi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan barpo etilgan Hamid Olimjon va Zulfiya xiyoboni, ikki shoir nomi bilan ataluvchi o'zbek tili va adabiyotini chuqur o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internat hamda muzey xalqimizning ardoqli farzandlariga ko'rsatilgan ulkan ehtirom namunasi bo'ldi.

Jizzax shahridagi tarixiy Xo'ja Nuriddin madrasasida adabiyotimizning ulkan namoyandalari Hamid Olimjon va Zulfiyaning adabiy merosini keng targ'ib qilish maqsadida muzey tashkil etildi. Buning uchun madrasa binosi tubdan ta'mirlanib, tarixiy ko'rinishi tiklandi. Madrasaning gumbaz qismi sirlangan koshin bilan qoplandi. Muzey ekspozitsiyasi mazmuni Prezidentimizning "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" asari hamda Hamid Olimjon va Zulfiya xiyoboni, ular nomi bilan ataluvchi maktab-internat tashkil etish bo'yicha bildirgan fikr-mulohazalari asosida shakllantirilgan. O'zbek xalqining atoqli shoiri Hamid Olimjon hamda she'riyatimiz malikasi Zulfiya Isroilovaning ijodi, o'zbek adabiyotini va madaniyatini yuksaltirishga katta hissa qo'shdi. Ularning asarlari nafaqat O'zbekistonda, balki qardosh hamdo'stlik davlatlarida ham kitobxonlar tomonidan sevib o'qib kelinmoqda va xorijiy tillarda nashr qilingan.

Atoqli va iste'dodli adiblarimiz Hamid Olimjon va Zulfiyaning xotirasini abadiylashtirish yuzasidan olib boriladigan chora tadbirlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning bu ikki ulkan ijodkorning ibratli hayoti, bir-biriga bo'lgan sevgi va sadoqati bugungi kunda kelajak avlod uchun ibrat manbai bo'lishi maqsadida Jizzax shahridagi "Xo'ja Nuriddin" madrasasi qayta rekonstruksiya qilinib, Hamid Olimjon va Zulfiya muzeyi joylashtirildi. Ushbu tarixiy ahamiyati juda ham yuqori bo'lgan muzey 2017-yil 3 noyabr kuni o'z faoliyatini boshladi. Hamid Olimjon va Zulfiya muzeyi tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, muzey ilk bor O'zbekiston Madaniyat Vazirligining 1988-yil 30-dekabrda qaroriga asosan tashkil etilgan. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-yanvardagi "Jizzax viloyatini ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi 19-son qarori asosida "Xo'ja Nuriddin" madrasasida "Ta'mir obida servis" MCHJ tomonidan ta'mirlash ishlari olib borildi⁵. Ta'mirlash ishlari yakunidan so'ng Hamid Olimjon va Zulfiya muzeyi madrasaga ko'chirildi.

Bo'lim faoliyati yanada jonlantirilib, Hamid Olimjon va Zulfiya hayoti va ijodi bilan bog'liq bo'lgan yangi-yangi eksponatlar bilan boyitildi.

Ko'rgazma maydoni 200 m.kv.

Umumiy eksponatlar soni-2228 ta.

Asosiy fond-1817 ta.

⁵ https://uz.wikipedia.org/wiki/Hamid_Olimjon_va_Zulfiya_muzeyi

Yordamchi fond-da-411 ta.

Ko'rgazmada – 441 ta eksponatlar mavjud.

Muzey 16 ta hujradan tashkil topgan bo'lib, ularda Hamid Olimjon va Zulfiya Isroilovanning hayoti va ijodi bilan bog'liq ko'plab eksponatlar qo'yilgan. Hujralarda Hamid Olimjonning ilk bor tushgan surati, o'sha davrdagi uy-ro'zg'or, kulolchilik buyumlaridan namunalar, Hamid Olimjon yashagan dala hovli maketi, adibning bolaligi tasvirlangan kartinalar, dutor, XX asrga mansub bo'lgan joynamoz, so'zana va kashtalar, Hamid Olimjonning onasi o'qigan arab alifbosidagi kitob hamda Komila ayaning kiygan kiyimi va ro'moli kabi buyumlar joylashgan. Hamid Olimjon yashagan dala hovli maketi adibning ukasi Sarvar Azimov so'zlariga ko'ra Gayvaronskiy tomonidan ishlangan.

Shuningdek, muzeyda Hamid Olimjon va Zulfiyaning asarlaridan namunalar, yaqin insonlar, oila a'zolari, hamkasblar va xorijlik yozuvchilar bilan tushgan fotosuratlar, ssenariylar, hujjatlar va guvohnomalar, kiyimlar, o'sha davrda aholi o'rtasida muomalada bo'lgan veksil, pullar va tangalardan namunalar, XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi toshbosma usulida chop etilgan kitoblardan namuna qo'yilgan. 1970-yilda Sh.Axtemov tomonidan Hamid Olimjonning bronzadan ishlangan byusti yasalgan⁶. 2017-yilda Bahrom Norboyev tomonidan Zulfiyaning ham byusti yasalgan bo'lib, ikkala byust ham muzeydan joy olgan. Shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, har ikkala byust ham muzey chiroyiga chiroy, ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi. Shuningdek, muzeydan Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim o'z ijod namunalari hisoblanmish she'rlarini bir-birlariga o'qib berayotgan holatlari tasvirlangan haykal hamjoy olgan. Zulfiyaga bag'ishlangan hujralarda shoiraning suratlari, mukofotlari, jumladan, Ukraina, Bolgariya, Qozog'istondan berilgan orden va medallar, 1999-yil Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan taqdim etilgan "Do'stlik" ordeni qo'yilgan. Zulfiya 1965-yili O'zbekiston xalq shoirasi, 1968-yili Javoharla'l Neru, 1970-yili Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti, 1971-yili Xalqaro Nilufar mukofotiga, 1977-yili Bolgariyaning "Kirill va Mefodiy" ordeniga, shuningdek, 1984-yili shoiralar ichida birinchi bo'lib Mehnat qahramoni unvoniga sazovor bo'lgan. Muzeyda Hamid Olimjon va Zulfiyaga muxlislar tomonidan hadya qilingan buyumlar, kiyim va esdalik sovg'alar ham saqlanadi. Ulardan biri 15-hujrada Boshqird shoiri Mustay Karim tomonidan Zulfiyaxonimga berilgan asal bochkasidir. Mustay Karim Zulfiyaxonimga sovg'a qilgan asal bochkasi, bundan tashqarimuzeyda saqlanayotgan har bir eksponat o'z tarixiga ega va o'zbek adabiyotining ikki namoyandasi Hamid Olimjon va Zulfiyaning butun hayoti haqida hikoya qiladi.

Iste'dodli shoir, dramaturg, olim va jamoat arbobi Hamid Olimjon 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida tug'ilgan. Besh yoshidan otasiz qolgan u onasi Komila va bobosi Mulla Azimning qo'lida tarbiyalangan. Hamid Olimjon dastlab 1918-yilda to'liqsiz o'rta maktabda o'qigan, so'ngra Narimanov nomidagi maktabda o'qishni

⁶ Toshkent viloyati hokimligi Axborot xizmati ma'lumotlari.

davom ettirib, 1923-yilda uni tugatgan. 1923—1926 yillarda Samarqand pedagogika texnikumida o'qigan. So'ngra 1926-1931 yillarda Samarqand shahridagi O'zbekiston Pedagogika akademiasining ijtimoiy-iqtisodiyot fakultetida o'qidi.

O'zbek xalqining sevimli shoirasi, atoqli jamoat arbobi, milliy dunyo kurashchisi – Zulfiya Isroilova 1915-yilda Toshkent shahrida degrez hunarmand oilasida tug'ilgan. Shoirasi o'zining “She'rlar” va “Qizlar qo'shig'i” she'riy asarlarini o'z ona yurtining pol va dashtlarida mehnat qilayotgan mehnatkash ayollar, paxtakorlar, mexanizatorlar, traktorchilar, ularning qaynoq va shiddatli hayotiga bag'ishlaydi. Ayni damda shoirasi she'riyatining mahoratli sirlarini puxta egallash ham o'ziga xos iste'dodni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1999-yil 10-iyundagi farmoni bilan Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi. 2014-yil 31-oktabrdagi qarori bilan buyuk xalq shoirasi Zulfiya tavalludining 100 yilligi keng nishonlandi. 2007-yilda Toshkentda xalq shoiri Zulfiya haykali o'rnatildi.

Mustaqillik yillarida xalq orasida “Zulfiya qizlari” iborasi paydo bo'ldi. Zero, uning hayoti va ijodi barcha o'zbek qizlari uchun yorqin ibratdir. Chunki Zulfiyaning hayot yo'li, mehnatsevarligi, hamisha olg'a intilishi, sevgan insoniga sadoqat va mehr-muhabbat, adabiy ijoddagi tinimsiz izlanish va hayot qiyinchiliklari oldida o'zini yo'qotmaslik – bularning barchasi har bir ayolda g'urur tuyg'usini uyg'otadi. Va har bir yosh qiz unga o'xshash bo'lishga harakat qiladi.

“Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti”ning ta'sis etilishi ta'lim muassasalarining talaba-qizlarida katta qiziqish uyg'otdi. Fan va san'atda jonkuyar, sportda yuksak natijalarga erishayotgan qizlar Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 27-aprel kuni Jizzax viloyatiga tashrifi chog'ida adabiyotning buyuk namoyandalari – Hamid Olimjon va Zulfiya adabiy merosini chuqur rivojlantirish va ochish zarurligini, ularning asarlari mazmun-mohiyatini yosh avlodimizga yetkazishkerakligini alohida ta'kidlagan edi. Ana shu maqsaddan kelib chiqib, bu ikki buyuk she'riyat ijodkori istiqomat qilgan va faoliyat olib borgan maskanlarda istirohat bog'i, yodgorliklar barpo etish g'oyasini ilgari surdi. Bu fikr bugun amalga oshdi. Iste'dodli shoirlar xotirasini abadiylashtirish, yosh avlod ulardan o'rnak olishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, ular yosh avlod uchun ibrat ibratidir.

Buyuk shoir Hamid Olimjon va she'riyatimiz malikasi Zulfiyaxonim o'zbek adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Nafaqat O'zbekistonda, balki hamdo'stlik davlatlarida ham ularning asarlari mehr va qiziqish bilan o'qiladi, ko'plab xorijiy tillarda ham nashr etiladi.

Xalqimiz tarixida xalqimizning mulki, faxri, insoniy kamoloti bo'lgan benazir shaxslar ko'p. Lekin ular orasida buyuk tafakkur sohibi, yulduzlar orasida yorug' quyoshdek chaq nab turgan, adabiyot va tariximizga beqiyos hissa qo'shgan buyuk shaxslar Hamid Olimjon va Zulfiya ulkan va salmoqli o'rin tutadi.

So‘zimiz nihoyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi ajoyib fikrlarini aytib o‘tishni lozim deb topdik: “Bugungi davrda Hamid Olimjonning xalq shoiri Zulfiya bilan hamjihat va do‘stona hayoti, bu ikki she‘riyat ijodkorining muhabbati, sadoqati yoshlarimiz uchun har tomonlama ibratli ibratdir”.